



CHARACTERISTICS OF LEXICAL COMPETENCE IN THE FIELD OF ECONOMICS

Inagamova Nargis Abdullayevna

Teacher

The University of World Economy and Diplomacy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17472718>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Lexical competence, economic English, digital technologies, ESP, TBLT, Quizlet, Write & Improve.

ABSTRACT

This article focuses on developing lexical competence among B2-level economics students learning English for professional purposes. It analyzes the semantic, stylistic, and collocational features of economic vocabulary, emphasizing the importance of contextualized and communicative learning approaches. The study highlights the effectiveness of digital tools, particularly Quizlet and Write & Improve, in enhancing students' ability to independently acquire, analyze, and apply vocabulary in authentic professional contexts. The integration of ESP (English for Specific Purposes) and TBLT (Task-Based Language Teaching) methods provides a modern methodological framework for teaching economic English. The proposed model encourages active learning, contextual application of terminology, and the development of confident professional communication skills in English. The findings contribute to improving the methodology of teaching English for economics students through digital and interactive pedagogical strategies.

ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СФЕРЕ ЭКОНОМИКИ

Инагамова Наргис Абдуллаевна

Преподаватель

Университет мировой экономики и дипломатии

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17472718>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Данная статья посвящена формированию лексической компетенции студентов экономических специальностей уровня B2 при



Лексическая компетенция, экономический английский язык, цифровые технологии, ESP, TBLT, Quizlet, Write & Improve.

изучении английского языка. В работе анализируются семантические, стилистические и коллокационные особенности экономической лексики, подчеркивается необходимость контекстуального и коммуникативного подхода в её усвоении. Особое внимание уделено применению цифровых технологий – интерактивных платформ Quizlet и Write & Improve, которые активизируют процесс запоминания, самостоятельного анализа и правильного использования лексических единиц в профессиональном контексте. На основе методик ESP (English for Specific Purposes) и TBLT (Task-Based Language Teaching) предложена интегрированная модель обучения, обеспечивающая развитие профессиональной лексической компетенции и повышение эффективности коммуникации студентов-экономистов. Результаты исследования могут быть использованы в практике преподавания английского языка для специальных целей.

IQTISOD SOHASIDAGI LEKSIK KOMPETENSIYANING XUSUSIYATLARI

Inagamova Nargis Abdullayevna

O'qituvchi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17472718>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Leksik kompetensiya, iqtisodiy ingliz tili, raqamli texnologiyalar, ESP, TBLT, Quizlet, Write & Improve.

ABSTRACT

Mazkur maqolada iqtisodchi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini B2 darajada shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilindi. Iqtisodiy ingliz tili leksikasining semantik, uslubiy va kombinator xususiyatlari o'rganilib, terminlarning kontekst asosida o'zlashtirilish zarurati asoslab berildi. Dissertatsiyada raqamli texnologiyalar – Quizlet va Write & Improve kabi interaktiv platformalarning o'rni leksik bilimlarni faollashtirish, mustaqil ishlash va xatolardan o'rganish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, ESP (English for Specific Purposes) va TBLT (Task-Based Language Teaching) metodlariga asoslangan yondashuvlar iqtisodiy sohada samarali leksik kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari iqtisodchi



talabalar uchun ingliz tili o'qitishda kontekstual, kommunikativ va texnologik integratsiyani uyg'unlashtirgan metodik modelni taklif etadi.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish sharoitida ingliz tili iqtisodiy muloqotning asosiy vositasiga aylangan. Xalqaro hamkorlik, investitsiya jarayonlari va ilmiy-amaliy almashinuvning kuchayishi iqtisod sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan tilni nafaqat umumiy, balki kasbiy darajada mukammal egallashni talab qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy ingliz tilidagi leksik birliklar tizimi o'zining semantik murakkabligi, uslubiy aniqligi va kombinator xususiyatlari bilan boshqa sohalardagi tildan farq qiladi. Shu sababli iqtisodchi talabalarda ingliz tili leksik kompetensiyasini shakllantirish masalasi bugungi til ta'limi metodologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada iqtisodiy ingliz tilining leksik xususiyatlari, ularning semantik, uslubiy va kombinator imkoniyatlari hamda B2 darajadagi talabalar uchun bu birliklarni samarali o'zlashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy terminlarning kontekst asosida anglanishi, ularni kommunikativ faoliyatda to'g'ri qo'llash, raqamli texnologiyalar yordamida leksik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari ham nazariy-amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shu orqali iqtisodiy soha vakillarining ingliz tilidagi kasbiy muloqotga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan metodik yondashuvlar tizimlashtiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili iqtisodchi talabalarda ingliz tili leksik kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Tilshunos olimlar (Richards, Nation, Schmitt, 2013; Thornbury, 2017) leksik kompetensiyani nafaqat so'z boyligini bilish, balki uni kontekstda to'g'ri qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflaganlar. ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi (Hutchinson & Waters, 1987) iqtisodiy sohada til o'qitishning kasbiy yo'naltirilgan modelini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xususan Quizlet va Write & Improve kabi platformalar, leksik kompetensiyani mustaqil va interaktiv shaklda rivojlantirish vositasi sifatida keng qo'llanmoqda (Godwin-Jones, 2018).

Metodologiya qismi esa B2 darajadagi iqtisodchi talabalarning ingliz tili leksikasini o'zlashtirish jarayonida ESP va TBLT (Task-Based Language Teaching) yondashuvlariga tayanadi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va tajribaviy (experimental) metodlar uyg'unlashtirilib, o'quvchi faoliyatini raqamli interaktiv vositalar orqali kuzatish, baholash va tahlil qilish asosida leksik o'sish dinamikasi aniqlangan. Bu model o'qitishda kontekstual, kommunikativ va raqamli integratsiyani birlashtiradi.

Iqtisodiy til, boshqa kasbiy sohalarga qaraganda, leksik jihatdan murakkabroq va ko'p qatlamli tuzilmaga ega. Bu murakkablik avvalo uning semantik jihatdan yuqori



darajada abstraktlikka ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy terminlarning ko'pchiligi real hayotdagi aniq obyektlarni emas, balki tushuncha, jarayon yoki tizimlarni anglatadi. Masalan, "macroeconomics", "capital flow", "inflation expectations", "monetary policy" kabi birliklar TALABAdan nafaqat so'z ma'nosini bilishni, balki ularning iqtisodiy kontekstdagi funksional mohiyatini tushunishni ham talab qiladi. Shuning uchun ham iqtisodiy leksika o'z-o'zidan yodlanadigan birliklar emas, balki kontekst asosida tahlil qilinadigan va muloqot muhitida faollashtiriladigan resurs sifatida qaraladi.

Iqtisodiy tilda qo'llaniladigan leksik birliklar nafaqat semantik murakkabligi, balki stilistik va uslubiy xususiyatlari bilan ham o'ziga xosdir. Bu til asosan rasmiy uslubga xos sintaktik va leksik birliklardan tashkil topadi. Nutqdagi izchillik, aniqlik va qisqalik iqtisodiy matnlar va muloqotlarda ustuvor tamoyil hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy leksikada sinonimlar yoki ekspressivlik emas, balki aniqlik va standartlashtirilgan terminlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabani leksik kompetensiyaga nisbatan o'ziga xos yondashuvga undaydi: u turli uslubiy ma'nolardagi so'zlardan emas, balki ma'nosi, ifodasi va qo'llanish doirasi qat'iy belgilangan birliklardan foydalanishni o'rganadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy leksik birliklar ko'pincha o'zaro bog'liq bo'lgan tizimli atamalar orqali muloqotda ishtirok etadi. Bir termin ko'pincha boshqasining tarkibiy qismi sifatida uchraydi, bu esa so'zlarni alohida emas, balki ularning o'zaro semantik va funksional bog'liqligi asosida o'rganishni talab qiladi. Masalan, "market structure" atamasi "perfect competition", "monopoly", "oligopoly" kabi boshqa tushunchalarni qamrab oladi; "foreign direct investment" deganda esa nafaqat umumiy sarmoya, balki investor, kompaniya turlari, faoliyat yuritish shakllari kabi elementlar ko'zda tutiladi. Demak, iqtisodiy leksika ko'p hollarda tematik tizimlar asosida shakllanadi va talaba bu tizimni anglamasdan turib alohida atamani to'g'ri va mos kontekstdan foydalanishga qiynaladi.

Umuman olganda, iqtisodiy tilning leksik xususiyatlari uni o'rganish jarayonida an'anaviy til o'rgatish metodlaridan farqli yondashuvni talab qiladi. Talaba har bir termini alohida yodlash orqali emas, balki uning tematik tizimdagi o'rnini anglash, kontekst asosida tushunish, funksional maqsadda ishlatish va boshqa leksik birliklar bilan bog'lab qo'llash orqali o'zlashtirishi kerak. Bu esa leksik kompetensiyani shakllantirishda chuqur tahliliy yondashuvni, uslubiy aniqlikni va zamonaviy o'quv vositalari yordamida mantiqiy bog'lanishni talab etadi.

Iqtisodiy terminlarni samarali egallash faqat ularning ma'nolarini bilish yoki tarjima qila olish bilan cheklanmaydi. Aslida, ularni to'g'ri o'zlashtirish, nutqda erkin va aniq qo'llay olish uchun bu birliklarning boshqa so'zlar bilan qanday birikmalarda ishtirok etishini, qaysi uslubiy kontekstlarda tabiiy tarzda ishlatilishini anglash lozim bo'ladi. Tilshunoslikda bu jarayon "kombinator imkoniyatlar", ya'ni so'zlarning o'zaro tabiiy bog'lanish qobiliyati orqali tavsiflanadi. Aynan shu komponent, ya'ni leksik birliklarning boshqa so'zlar bilan birikish qonuniyatlarini tushunish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi leksik kompetensiyaning yuqori bosqichdagi belgisidir.

Demak, iqtisodiy leksikaning kombinator va uslubiy imkoniyatlari til o'rganuvchidan nafaqat boy lug'at zaxirasini, balki bu zaxirani stilistik jihatdan to'g'ri,



kollokatsion jihatdan tabiiy va kommunikativ jihatdan maqbul holatda ishlata olishni talab etadi. Bu esa til o'rgatish jarayonida terminologiyani alohida so'z shaklida emas, balki tayyor iboralar, kollokatsiyalar va real kontekst asosida o'rgatish zaruratini tug'diradi. Aynan shunday yondashuv orqali leksik kompetensiyaning amaliy funksional darajasi shakllanadi va iqtisodiy ingliz tilida samarali muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bugungi globallashtirish ta'lim muhitida iqtisodchi talabalar ingliz tilini nafaqat umumiy muloqot uchun, balki o'z sohasidagi ilmiy va amaliy faoliyatni olib borish, xalqaro resurslardan foydalanish, xorijiy hamkorlar bilan aloqada bo'lish va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun egallamoqdalar. Bunday talabalarning o'quv ehtiyoji esa soddagina ifodalar bilan chegaralanmaydi. Ular B2 darajada iqtisodiy atamalarni anglab, ularni kontekstda mustaqil tahlil qila olishi, og'zaki va yozma nutqda faol ishlata bilishi zarur. Shu sababdan, iqtisodga ixtisoslashgan talabalar bilan ishlayotganda leksik kompetensiyani an'anaviy usullar orqali emas, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida, individual yondashuv asosida rivojlantirish ehtiyoji yuzaga chiqadi.

An'anaviy dars shakllari, ayniqsa leksikani o'rgatishda, ko'pincha passiv va yodlashga asoslangan modelga tayanadi. Bu yondashuv esa iqtisodiy terminlarni faol qo'llash, ularni kontekstda ishlatish, tahlil qilish yoki og'zaki taqdim etish kabi B2 darajaga xos kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Raqamli texnologiyalar esa aynan shu bosqichda o'qitish jarayonini faollashtiradi: u talaba va til o'rtasidagi muloqot chastotasini oshiradi, kontekstlarni kengaytiradi, real iqtisodiy nutq namunalari taqdim etadi va ularni interaktiv shaklda o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar orqali talaba individual sur'atda, xatolarini anglagan holda, o'z faoliyatini tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. B2 darajadagi o'rganuvchiga faqat material berish emas, balki uni mustaqil ishlatishga imkon yaratish zarur. Masalan, iqtisodiy atamalar asosida tayyorlangan interaktiv topshiriqlar, grafikani tahlil qilish mashqlari, terminologik testlar va ingliz tilidagi iqtisodiy maqolalarni sharhlash uchun mo'ljallangan platformalar bu ehtiyojni qondiradi. Raqamli texnologiyalar bu yerda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'rganish modelini transformatsiya qiladi: ma'lumot markazida o'qituvchi emas, balki maqsadli faoliyat bilan shug'ullanayotgan talaba turadi.

Ayniqsa, iqtisod sohasiga oid matnlar bilan ishlashda yoki terminlarni faollashtirishda raqamli resurslar nafaqat o'quv muhitini boyitadi, balki talabani til orqali kasbiy fikrlashga tayyorlaydi. Bu esa B2 darajadagi talabalar uchun nafaqat til ko'nikmasi, balki kasbiy kompetensiyalarning til orqali ifodalanishini rivojlantiradi. Dissertatsiyaning mazkur yo'nalishda olib borilishi ham bejiz emas: iqtisodchi talabalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida samarali va funksional leksik kompetensiyaga ega qilish – bu ta'limning yangi bosqichiga xos yondashuvdir.

B2 darajadagi iqtisodchi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini shakllantirishda raqamli texnologiyalar orasida faol, interaktiv va o'rganishga yo'naltirilgan vositalar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy o'quv texnologiyalari orasida Quizlet kabi platformalar va Write&Improve kabi sun'iy intellekt asosida ishlovchi ilovalar o'zining samaradorligi, o'rgatuvchanligi va talaba faolligini oshiruvchi



xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar leksik kompetensiyani oddiy yodlash emas, balki anglab ishlatish, kontekstda qo'llash va mustaqil tahlil qilish darajasida shakllantirishga xizmat qiladi.

Quizlet – bu raqamli fleshkartlar asosida ishlovchi interaktiv platforma bo'lib, u ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarni tematik asosda, vizual va kontekstual formatda mashq qilish imkonini beradi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki talabaning o'zi tuzgan leksik to'plamlar asosida Quizlet o'rganuvchiga so'zlarni anglab olish, ularni tanib olish, to'g'ri ishlatish va ularni test asosida sinab ko'rish imkonini beradi. Bu vosita ayniqsa iqtisodiy terminologiya bo'y, lekin stilistik jihatdan qat'iy bo'lgan mavzularda ishlashda samarali: masalan, “monetary policy”, “supply chain”, “interest rate”, “investment return” kabi birikmalarni mantiqiy guruhlariga ajratish va ularni bir-biri bilan bog'lash imkonini beradi.

Quizlet platformasining eng muhim afzalligi – bu kognitiv faoliyatga asoslangan o'rganish modelini yaratishidir. Talaba tayyor so'zlar ro'yxatini oddiy yodlash o'rniga, ularni kartochkalar bilan tanib oladi, to'ldirish, tenglik topish, bog'lash, testdan o'tish va raqobatli o'yin shakllarida qayta ishlaydi. Natijada leksik birliklar passiv bilimdan chiqib, faol nutqiy zaxiraga aylana boshlaydi. Bu aynan leksik kompetensiyaning markaziy tamoyiliga – “so'zlarni bilish emas, balki ishlatish”ga asoslanadi. Ayniqsa, iqtisodiy terminlarning aniq, qisqa va to'g'ri qo'llanilishi talab qilinadigan yozma va og'zaki faoliyat turlarida bu vosita mustahkam tayyorlov funksiyasini bajaradi. Yana bir muhim jihati – Quizlet orqali har bir talaba o'zining individual lug'at kartotekasini yaratadi, bu esa o'z navbatida differensial yondashuvga asoslangan ta'limni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, talaba “macroeconomics” atamasini yaxshi bilishi mumkin, lekin “fiscal decentralization” iborasida qiynalishi mumkin. Shunday hollarda u shaxsiy zaif joylariga yo'naltirilgan to'plam tuzadi va faqat shu bo'yicha takrorlaydi. Bu esa talabaning o'z ustida ishlashini anglash darajasida boshqarishga yordam beradi.

Leksik kompetensiyaning yozma nutqdagi ifodasi bilan bog'liq jihatlarida esa Write & Improve vositasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ilova sun'iy intellektga asoslangan bo'lib, talabaning yozgan matni asosida grammatika, leksika, stilistika va tuzilishga oid xatolarni aniqlab beradi. Muhimi, bu vosita faqatgina xatoni ko'rsatibgina qolmaydi, balki ularni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi, takroran topshirish imkonini yaratadi va talabaga o'zining yozma ifodasi ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Write&Improve ilovasining yana bir ustunligi – bu til darajasini CEFR mezonlari asosida avtomatik aniqlashi va har bir topshiriqdan so'ng talabaning progresini grafik shaklida ko'rsatishidir. Bu vosita orqali talaba o'zining leksik xatolari qanday guruhlariga bo'linishini, ularni necha marotaba takrorlaganini, qaysi mavzuda ko'proq muammo yuzaga kelganini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar asosida o'qituvchi talaba bilan individual ishlash strategiyasini belgilashi, o'z navbatida talaba esa o'z zaif jihatlarini anglab, ularni mustaqil rivojlantirish choralari ko'radi.

Quizlet va Write&Improve kabi vositalar iqtisodchi talabalarning leksik kompetensiyasini nafaqat miqdoriy jihatdan kengaytiradi, balki uni sifat, kontekst va funksional qo'llash darajasiga olib chiqadi. Ular dissertatsiyamiz mavzusi doirasida raqamli texnologiyalar yordamida terminologik bilimlarni faollashtirish, kontekstual



anglash, stilistik moslik va mustaqil nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Til o'rganish jarayonida leksik birliklarni mustahkamlashning eng samarali yo'llaridan biri bu ularni kontekst asosida o'rgatishdir. Ayniqsa, iqtisod sohasiga oid atamalar rasmiy nutqda qat'iy semantik yuklama, uslubiy aniqlik va mantiqiy ketma-ketlik talab qilganligi sababli, ularni alohida yodlash emas, balki real matn va vaziyatlar orqali o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar aynan kontekstni boyituvchi va talabani faol ishtirokini rag'batlantiruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi.

MUHOKAMA

Raqamli platformalar yordamida o'qituvchi iqtisodiy terminlarni turli nutq vaziyatlari orqali talabalarga taklif qilishi mumkin:

- iqtisodiy maqola sharhlari,
- infografika asosida matn tuzish,
- moliyaviy ko'rsatkichlar asosida izoh yozish,
- iqtisodiy forumlar dialoglarini tahlil qilish,
- real kompaniya bayonotlari asosida tushuncha ishlab chiqish.

Bu usullar talabani tushunish, qo'llash va tahlil qilish kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi. Har bir iqtisodiy termin o'z funksional kontekstida o'rganilgani uchun u faqat xotirada saqlanmaydi, balki nutqiy refleksga aylanadi. B2 darajadagi talaba uchun aynan mana shu refleks – ya'ni kerakli iborani o'z vaqtida va to'g'ri tanlay olish salohiyati – leksik kompetensiyaning yadro elementidir.

Bunday metodik imkoniyatni amalga oshirishda multimedia materiallari alohida o'rin egallaydi. Masalan, ingliz tilidagi iqtisodiy yangiliklar (Bloomberg, Financial Times, CNBC v.b.), real korporatsiyalarning press-revizlari yoki marketing strategiyalari asosida tayyorlangan mashqlar orqali talaba real til bilan tanishadi. Undan so'ng, ushbu matn asosida interaktiv topshiriqlar beriladi: kollokatsiyalarni tanlash, so'z joylashuvini aniqlash, gapni kontekstga mos yakunlash yoki o'ziga xos izoh yozish. Bu esa TALABANing mazmunga tayangan faol ishlashini ta'minlaydi.

Shuningdek, raqamli muhitda kontekst asosida o'rgatishning yana bir kuchli tomoni – bu xatolik asosida o'rganish (learning from errors) modelini qo'llash imkonidir. Talaba noto'g'ri qo'llagan termin yoki nomuvofiq birikma yuzasidan real vaqtli tahlilga ega bo'ladi. Aynan shu tarzda, u har bir atamaning stilistik mosligini, funksional vazifasini, semantik chegarasini chuqur anglaydi. Bu yondashuv an'anaviy modeldagi "xatoni tuzatish" emas, balki "xatodan o'rganish" tamoyilini hayotga tatbiq qiladi. Eng muhimi, bunday interaktiv, kontekstual o'rganish modeli talabani passiv qabul qiluvchidan faol ishlab chiqaruvchiga aylantiradi. Talaba termini eslab qolmaydi – balki u bilan ishlaydi: grafik tahlil asosida matn yozadi, moliyaviy natijalarni ifodalaydi, rasmiy hisobot tayyorlaydi yoki og'zaki chiqishda foydalanadi. Bu esa nafaqat leksik kompetensiyaning rivojiga, balki kasbiy nutqiy tayyorgarlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Raqamli muhitda kontekst asosida iqtisodiy terminlarni o'rgatish – bu leksik kompetensiyani yuqori bosqichga olib chiqishning eng samarali yo'llaridan biridir. U talabani real nutq muhiti bilan to'qnashishga undaydi, terminlarni hayotiylik bilan uyg'unlashtiradi va tilni



faqat bilim emas, balki amaliy vosita sifatida egallash imkonini yaratadi. Aynan shuning uchun dissertatsiyamiz doirasida ishlab chiqiladigan metodik yondashuvlar ham aynan shu modelga asoslanadi.

Leksik kompetensiyani shakllantirishda nafaqat materialning sifati, balki talabanning o'quv faoliyatiga qanday jalb etilgani ham hal qiluvchi omildir. Ayniqsa, B2 darajadagi iqtisodchi talabalar bilan ishlaganda, leksik birliklarni anglash va eslab qolish yetarli emas – ularni faol, mos va erkin ishlata olish ham muhim. Ana shu nuqtada interaktivlik va talaba faolligi til o'rgatishning asosiy tamoyiliga aylanadi. Raqamli texnologiyalar aynan shu ikki komponentni o'qituvchiga taklif qiluvchi eng samarali vositadir: ular passiv o'qitishdan chiqib, talabani jarayon markaziga olib chiqadi.

Interaktiv o'quv muhiti deganda, talaba bir vaqtning o'zida ko'radi, eshitadi, tanlaydi, to'g'rilaydi, baholaydi, ishlab chiqadi va muloqotga kirishadi. Bunday ko'p funksiyali faoliyat leksik kompetensiyaning barcha bosqichlarini qamrab oladi: qabul qilish (persepsiya), tushunish (dekodlash), qayta ishlash (qo'llash) va ishlab chiqarish (produksiya). Raqamli vositalar – bu o'qituvchiga real va multimodal interaktiv tajriba yaratish imkonini beruvchi vositalardir. Masalan, iqtisodiy terminlarni o'rganish jarayonida talaba tayyor grafik asosida tahliliy matn yozadi, raqamli infografikani sharhlaydi, sun'iy intellekt vositasi bilan interaktiv dialog yuritadi yoki jamoadagi boshqa talabalar bilan real vaqtda fikr almashadi. Bunday interaktiv faoliyat shakllari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Rolga asoslangan simulyatsiyalar.

Bu faoliyatda talabalar o'zlarini xalqaro iqtisodiy forum ishtirokchisi sifatida tasavvur qiladilar. Masalan, dars davomida o'qituvchi "World Economic Summit" nomli interaktiv mashg'ulot tashkil qiladi. Har bir talaba turli mamlakat vakili sifatida chiqadi va o'z mamlakatining iqtisodiy holati, soliq siyosati yoki investitsion strategiyasi haqida ingliz tilida qisqacha taqdimot tayyorlaydi. U "gross domestic product", "tax incentives", "foreign investment", "trade deficit" kabi sohashtirilgan terminlarni kontekstda ishlatishga majbur bo'ladi. Bu mashg'ulot Google Slides yoki Zoom break-out xonalari orqali tashkil qilinadi. Bu nafaqat leksikani mustahkamlaydi, balki real kasbiy muloqotga tayyorlaydi.

- Leksik kvestlar.

Iqtisodiy terminlarni topish va ularni kontekstda ishlatishga asoslangan qiziqarli o'yin shaklidir. Masalan, talabalarga "Banking Sector Vocabulary Quest" deb nomlangan vazifa beriladi: bunda Google Forms asosida tuzilgan matnli topshiriqda muayyan atamalar yashirilgan bo'ladi. Masalan, paragraf ichida "liquidity", "interest rate", "capital adequacy", "loan default" atamaları yashiringan va talabalar bu terminlarni topib, har birining ma'nosini izohlab, real bank stsenariylarida qanday ishlatilishini yozma ravishda bayon qiladilar. Bunday topshiriqlar orqali leksik kompetensiya chuqurlashadi, kontekstual anglash kuchayadi.

- Gamifikatsiya.

Bu metodda talabalarining ishtiroki raqobat, qiziqish va o'yin elementlari orqali faollashtiriladi. Masalan, "Quizizz" platformasida o'qituvchi "Financial Terms Challenge" nomli viktorina yaratadi. Har bir savolda iqtisodiy ibora beriladi (masalan, "bear market",



“fiscal policy”, “exchange rate volatility”) va talabalar shu atamani to‘g‘ri kontekstda tanlashi kerak: “This term describes a period of declining stock prices over a sustained period of time.” → to‘g‘ri javob: “bear market”. O‘yin oxirida natijalar reyting shaklida aks etadi. Talabalar bir-birining ballarini ko‘radi, bu esa sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

- Real-time baholash.

Onlayn testlar yoki interaktiv mashqlar orqali talabalar leksik topshiriqlarni bajaradilar va tizim avtomatik tarzda javoblarni tahlil qilib beradi. Masalan, “Kahoot” platformasida yaratilgan topshiriqda talabaga qisqa paragraf beriladi: “The central bank increased the ____ to reduce inflation.” Talaba variantlar ichidan “interest rate”, “budget deficit”, “market share” kabi terminlarni tanlaydi. Javob yuborilgan zahoti tizim to‘g‘riligini ko‘rsatadi va izoh beradi: “Raising interest rates is a common monetary policy tool to curb inflation.” Bunday baholash shakli leksikani tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va o‘z xatolaridan o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Bu usullar orqali talaba materialni yodlab emas, boshqarib o‘zlashtiradi. talaba nutqiy birliklar bilan ishlaydi, ularni tanlaydi, xatolik qiladi, tuzatadi, va eng muhimi – kontekstda fikr bildiradi. Shunday jarayonda leksik kompetensiya nafaqat kengayadi, balki u faol ishlashga tayyor holga keladi. Bu aynan B2 darajadagi til egallovchiga qo‘yiladigan eng muhim talabdir. Bundan tashqari, raqamli vositalar orqali yaratiladigan interaktivlik – bu o‘ziga xos til muhitini simulyatsiya qilishdir. Masalan, iqtisodiy bozor holatini ko‘rsatuvchi video asosida savol-javob tashkil etiladi, talabaga tanlov vazifasi beriladi: qanday siyosiy qaror bozorni barqarorlashtirishi mumkin? Bu jarayonda talabaga biror tayyor lug‘at ro‘yxati emas, balki erkin tanlov va tanlagan so‘zlarni hujjatbop va uslubiy to‘g‘ri ishlatish talabi qo‘yiladi. Natijada u o‘rgangan terminlarni passiv emas, kontekstga bog‘liq holda tanlaydi va faol ishlatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan interaktiv raqamli vositalarning yana bir muhim afzalligi – bu ixtiyoriy ishtirok asosidagi o‘rganishdir. Talaba o‘zi istagan vaqt, istagan tezlikda, istagan modul bo‘yicha o‘rganadi. Bunday elastik yondashuv talabaning individual qobiliyatlariga mos keladi va psixologik bosimni kamaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, motivatsiyani kuchaytiradi va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Faollik – faqat auditoriyada emas, balki mustaqil o‘rganishda ham davom etadi.

Raqamli baholash vositalari ikki asosiy ustunlikni ta‘minlaydi: real vaqtli natija va tahlil hamda individuallashtirilgan o‘zgarishni monitoring qilish imkoniyati. Masalan, Google Forms yoki Moodle quiz vositalari yordamida yaratilgan testlar orqali o‘qituvchi iqtisodiy terminlar asosida turli savollarni tayyorlashi mumkin: tanlash, to‘ldirish, kontekst asosida to‘g‘ri atamani tanlash, matn asosida leksik tahlil kabi topshiriqlar. Talaba har bir savolga onlayn javob beradi, tizim esa avtomatik tarzda nafaqat to‘g‘rilikni, balki ishlatilgan vaqt, xatoliklar soni, ularning turlari va savollar darajasini hisobga olgan holda real vaqtda tahliliy xulosa beradi. Bu o‘qituvchiga ham, talabaning o‘ziga ham aynan qayerda muammo borligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Write&Improve kabi sun‘iy intellektga asoslangan vositalar talabaning yozma nutqidagi leksik xatolarni turkumlab beradi: masalan, “kollokatsion xato”, “uslubiy nomuvofiqlik”, “termin noto‘g‘ri kontekstda ishlatilgan” kabi. Bunday tizim talabaning leksik darajasini CEFR bo‘yicha baholab, “Your vocabulary is appropriate, but collocations



are inconsistent with formal economic writing” kabi izohlar orqali talabaning real leksik salohiyatini ko’rsatadi. Muhimi, ushbu baholash statik emas, balki jarayoniy monitoringga asoslangan – har bir topshiriqdan keyin talaba o’z o’sishini ko’radi.

Raqamli monitoring vositalaridan yana biri bu – LMS (Learning management systems) orqali kiritilgan leksik portfoliolardir. Bu usulda talaba har hafta o’z o’rgangan iqtisodiy terminlarini ma’lum shaklda (definisiyasi, kollokatsiyasi, misollar, kontekstli gap) yozib boradi. Ushbu portfoliolar Google Docs, Padlet yoki OneNote orqali yuritilishi mumkin. O’qituvchi esa bu fayllarni tahlil qilib, har bir talabaning leksik repertuarining kengayishi, ishlatish shakllari, faollik va sifat ko’rsatkichlarini baholaydi.

Interaktiv platformalarda yaratilgan leksik progres grafigi (masalan, Quizlet’dagi “mastered”, “learning”, “not started” statuslari), talaba o’z bilim darajasini nazorat qilishga, o’qituvchi esa guruhdagi umumiy natijalarni ko’rishga yordam beradi. Bu monitoring talabaning uzluksiz rivojlanish yo’nalishini aniqlaydi, mustahkamlash yoki to’g’rilash kerak bo’lgan joylarni aniq ko’rsatadi. Raqamli baholashning yana bir ustunligi – bu baholashni faqat “natija” sifatida emas, balki o’rganishning ajralmas qismi sifatida qarashidir. Talaba xato qilganda jazolanmaydi, aksincha, o’zini tahlil qilish imkoniga ega bo’ladi. Bu esa stresssiz, ongli o’rganish muhitini yaratadi va leksik kompetensiyani mustahkamlovchi asosiy omillardan biriga aylanadi.

Zamonaviy til o’rgatish metodologiyasida ESP (English for specific purposes – maqsadli yo’naltirilgan ingliz tili) yondashuvi ixtisoslashgan soha vakillari uchun til bilimni funksional shaklda egallashga yo’naltirilgan kuchli didaktik model sifatida tan olingan. Ayniqsa, iqtisod sohasida tahsil olayotgan B2 darajadagi talabalar bilan ishlaganda, umumiy til yondashuvi samaradorlik nuqtayi nazaridan yetarli bo’lmay qoladi. Ular umumiy muloqot emas, balki kasbiy matnlarni tushunish, iqtisodiy atamalarni kontekstda qo’llay olish, xalqaro forumlarda fikr bildirish va tahliliy yozma nutqda qatnashish kabi vazifalarni bajarishga tayyor bo’lishlari kerak. Aynan mana shunday ehtiyojlarga javob beruvchi yondashuv bu – ESP modelidir.

ESP yondashuvining iqtisodiy leksikani o’rgatishdagi asosiy afzalligi shundaki, u o’quv materialini talabaning sohaviy konteksti bilan bog’laydi. Masalan, “demand” yoki “market” so’zlari umumiy ingliz tilida keng qo’llansa-da, ESP modelida ular “aggregate demand”, “elasticity of demand”, “competitive market”, “emerging market economies” kabi terminologik shakllarda, real iqtisodiy matnlar asosida o’rganiladi. Bu yondashuv orqali talaba nafaqat yangi terminlarni egallaydi, balki ularning uslubiy joylashuvi, mantiqiy aloqadorlik darajasi va kasbiy nutqdagi funksional vazifasini ham tushunadi.

Metodik jihatdan ESP darslari ikki asosiy tamoyilga tayanadi:

Talabaning ehtiyojiga moslashtirilgan leksik kontent,

Real nutqiy vazifalarga yo’naltirilgan o’rgatish.

Birinchi tamoyilga ko’ra, ESP yondashuvida dars materiallari talabalar tahsil olayotgan soha – iqtisodiyot – bilan uzviy bog’liq bo’ladi. Bu degani, o’quv jarayonida umumiy mavzular emas, balki bevosita iqtisodiy faoliyatga oid real kontentlar asosida til materiallari tanlanadi. Masalan, ESP yondashuviga tayangan darsda talabalar real hayotdagi iqtisodiy vaziyatni tushunishga yordam beruvchi soddalashtirilgan matn ustida ishlaydi. Darsda “What is inflation?” nomli qisqa maqola beriladi (soddalashtirilgan B2



darajadagi ingliz tilida yozilgan). Matn ichida “prices increase”, “money loses value”, “central bank”, “interest rate” kabi terminlar mavjud bo'ladi. Talaba ushbu terminlarni ajratib oladi, ularning tarjimasini yozadi va matn asosida savol-javob mashg'ulotida ishtirok etadi. Keyinchalik, o'qituvchi talabalardan “O'zbekistonda so'nggi yillarda narxlar o'sishi bilan bog'liq holat haqida fikr bildiring” mazmunidagi og'zaki topshiriqni ingliz tilida bajarishni so'raydi. Yoki boshqa bir darsda talabalar uchun “Small Business in Uzbekistan” nomli soddalashtirilgan intervyu matni tanlanadi. Bu matnda “entrepreneur”, “start-up”, “profit”, “risk”, “loan” kabi terminlar uchraydi. Matnni o'qib chiqqach, talabalar ushbu terminlarni kartochkalar shaklida ishlaydi (Quizlet platformasida), so'ngra kichik guruhlariga bo'linib, “If you started a business, what kind of product or service would you offer?” mavzusida ingliz tilida erkin suhbat qurishadi. Shuningdek, o'qituvchi har bir guruhga soddalashtirilgan biznes-reja shabloni taqdim etadi va talabalar undan foydalanib qisqa yozma topshiriq tayyorlaydi. Baholash bosqichida esa, talabalarga “Explain the difference between profit and revenue in simple terms” kabi savollar beriladi. Ular yozma yoki og'zaki shaklda javob beradi va o'qituvchi bu javoblarni leksik boylik, aniqlik va kontekstga moslik bo'yicha baholaydi.

Ikkinchi tamoyilga ko'ra, leksika oddiy yodlashga emas, balki nutqiy funktsiyalar asosida o'zlashtiriladi. Masalan, ESP darsida talaba “inflation” atamasini nafaqat izohlab berishni, balki uni statistik matnda qanday ishlatishni, og'zaki chiqishda qanday izoh berishni va yozma sharhda qanday kombinatsiyada qo'llashni o'rganadi. Bu esa leksik kompetensiyaning passiv emas, faol darajada shakllanishini ta'minlaydi. Masalan, “inflation” terminini o'rganish uchun dars quyidagicha tashkil qilinadi: o'qituvchi talabalar e'tiboriga soddalashtirilgan ingliz tilidagi statistik maqola taqdim etadi – maqola sarlavhasi: “Uzbekistan's Inflation Trends in 2023”. Matnda quyidagi iboralar ishlatilgan: “price growth”, “consumer goods”, “inflation rate rose by 10%”, “government response”, “central bank measures”. Talabalardan birinchi navbatda ushbu atamalarni ajratib olish va ularning tarjimasini aniqlash so'raladi. Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga ajratadi va quyidagi topshiriqni beradi: “Tasavvur qiling, siz iqtisodiy yangiliklar dasturining boshlovchisiz. Ushbu matn asosida televideniya orqali qisqacha axborot berishingiz kerak. ‘Inflation’ terminini kamida 3 xil kontekstda ishlatib.” Talabalar ushbu topshiriqni ingliz tilida bajaradi. Ulardan biri shunday gaplar tuzadi: “Inflation in Uzbekistan has affected food and housing prices the most.”, “The inflation rate increased by 10% compared to the previous year.”, “The government introduced new policies to control inflation.” Ushbu faoliyat davomida talaba “inflation” so'zini nafaqat tarjima sifatida biladi, balki uni real iqtisodiy nutqning turli formatlarida qanday ishlatish kerakligini ham tushunadi: statistik matnda, rasmiy og'zaki chiqishda, va muhokamada. Eng muhimi – u bu so'zning stilistik va semantik yukini, boshqa birliklar bilan bog'lanishini (“rate”, “policy”, “growth” kabi) o'zlashtiradi. Bu esa ESP yondashuvining eng muhim natijasi bo'lib, leksik kompetensiyani faol va funktsional darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan ESP yondashuvi leksikani samarali o'rgatish uchun o'quv faoliyatini kasbiy nutq kontekstiga asoslangan holda tashkil etadi. Bu jarayonda an'anaviy mashqlar emas, balki iqtisodga doir konkret vazifalar, real matnlar va faol kommunikativ



topshiriqlar asosida tuzilgan mashg'ulotlar qo'llaniladi. Masalan, kontekstual matnlar asosida tushunchalarni ajratish uchun o'qituvchi talabalar e'tiboriga soddalashtirilgan maqolani taqdim etadi: "The Role of Small Businesses in Uzbekistan's Economy". Matnda "entrepreneurship", "loan", "tax benefit", "employment rate" kabi atamalar mavjud. Talabalar ushbu atamalarni ajratib olib, o'z tarjimalarini yozadi va har bir termin uchun oddiy jumla tuzadi: masalan, "A loan helps small businesses to start operating." Ushbu faoliyat orqali so'zlar izolyatsiyalangan holda emas, balki kontekst asosida va kommunikativ niyat bilan o'rganiladi. Shundan so'ng, TALABALAR ushbu terminlarni real kommunikativ topshiriqda ishlatishadi. Masalan, ularning vazifasi – "Yosh tadbirkorlar forumi"da qisqacha nutq qilish. Ular: "Our startup received a tax benefit from the local government, which allowed us to hire more employees." kabi gaplar tuzadi. Bu topshiriq orqali talaba o'zlashtirgan so'zlarni kontekstda, og'zaki chiqish shaklida, uslubiy to'g'rilikni saqlagan holda ishlatadi. Keyingi bosqichda o'qituvchi talabaga soddalashtirilgan kompaniya tavsifi asosida yozma topshiriq beradi: "Write a short email to a foreign partner to describe your company's services." Bu yerda talaba "service quality", "partnership", "export potential" kabi so'zlardan foydalanadi. Ushbu faoliyat orqali soha matni asosida akademik yozma nutq ko'nikmasi va leksik aniqlik shakllanadi. Yakuniy mashg'ulotda esa talabalar kichik guruhlariga bo'linib, rolga asoslangan muloqot simulyatsiyasini amalga oshiradi. Scenariyga ko'ra, bir talaba tadbirkor, ikkinchisi xorijiy investor rolini bajaradi. Ular ingliz tilida kompaniya tavsifi, daromad rejalari va marketing strategiyasi haqida suhbat quradi. Bunda "sales growth", "market analysis", "return on investment" kabi iboralarning to'g'ri va mos ishlatilishi talab etiladi. Bu jarayon ESP yondashuvining eng muhim mezoniga – real hayotga yaqin til vazifalari orqali tilni faol o'rganish tamoyiliga asoslanadi. Bu faoliyatlar davomida o'qituvchi o'z rolini ma'lumot beruvchidan ko'ra yo'naltiruvchi va strategik muhit yaratuvchi sifatida bajaradi. Talaba esa tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o'z kontekstida ishlab chiquvchi, tanlov qiluvchi va baholovchi subyektga aylanadi. Aynan shu jihatlar ESP yondashuvini boshqa metodlardan ajratib turadi.

Vazifaga asoslangan yondashuv (Task-Based Language Teaching – TBLT) til o'rgatishda talabaning e'tiborini grammatika yoki lug'atni yodlashga emas, balki mazmunli, muloqotga asoslangan topshiriqni bajarishga yo'naltiradi. Ushbu metod ayniqsa iqtisod sohasida o'qiyotgan B2 darajadagi talabalar uchun ayni muddao bo'lib, ularni kasbiy faoliyatga yaqin kommunikativ vazifalar orqali leksikani faol qo'llashga tayyorlaydi. TBLT yondashuvi leksik kompetensiyani rivojlantirishda passiv bilimdan faol qo'llashga o'tish, kontekst asosida so'z tanlash, va nutqiy moslikni shakllantirish tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuvda til vosita sifatida qo'llaniladi – maqsad esa aniq kommunikativ topshiriqni bajarishdir. Masalan, talabalar bilan o'tkaziladigan darsda quyidagi topshiriq asosida mashg'ulot tashkil qilinadi:

TBLT metodidagi topshiriqlar bosqichma-bosqich tashkil qilinadi va bu bosqichlar talabaning leksik kompetensiyasini anglash, faol qo'llash va tahlil qilish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiradi. Har bir bosqich maqsadga yo'naltirilgan metodik faoliyatlar bilan boyitiladi.



Tayyorgarlik bosqichi (Pre-task stage) – bu bosqichda o'qituvchi mavzu asosida bajariladigan topshiriq haqida qisqacha ma'lumot beradi, asosiy iqtisodiy terminlar bilan tanishtiradi va ularning kontekstual qo'llanilishini tushuntiradi. Misol uchun, "Company financial performance" mavzusida dars tashkil qilinayotgan bo'lsa, ushbu bosqichda "revenue", "cost", "profit", "expenses", "growth" kabi atamalar soddalashtirilgan jumlar orqali izohlanadi. Talabalar ushbu atamalar bilan gaplar tuzish orqali ularni mustahkamlab oladi. Masalan: "Our company's revenue increased this year."

Vazifa bajarish bosqichi (Task cycle) – bu darsning asosiy bosqichi bo'lib, talabalarga til vositalaridan foydalanib, aniq nutqiy topshiriqni mustaqil bajarish vazifasi yuklanadi. Masalan, talabalarga quyidagi topshiriq berilishi mumkin: "You are a financial analyst. Prepare a short oral presentation about your company's quarterly performance using economic terms." Ushbu topshiriq doirasida talaba "net profit", "market share", "sales growth", "operating costs" kabi terminlarni mustaqil tanlaydi va kontekstda qo'llab, og'zaki taqdimot shaklida ifodalaydi. Bu bosqichda o'qituvchi talabani erkin ishlashga undaydi, faqat kerakli holatlarda yordam ko'rsatadi. Asosiy e'tibor talabaning nutqiy faolligiga qaratiladi.

Tahlil va baholash bosqichi (Post-task stage) – bu yakuniy bosqichda o'qituvchi talabalarining bajargan topshiriqlari ustida ishlaydi, leksik jihatdan kuchli va zaif tomonlarini muhokama qiladi, va kerakli tuzatishlarni beradi. Misol uchun, talaba taqdimotda "Our income got bigger" degan jumladan foydalangan bo'lsa, o'qituvchi "income" o'rniga "revenue" yoki "profit" so'zlarini ishlatish afzal ekanini izohlaydi. Shuningdek, talaba yozgan yozma ishda noto'g'ri ishlatilgan iboralar guruhlanadi va to'g'ri variantlar bilan solishtiriladi. Masalan: "The profit is good." – xato; "The company achieved a high profit margin." – maqsadga muvofiq. Ushbu bosqich talabaga xatolar ustida ishlash, stilistik aniqlikni shakllantirish va kontekstga mos leksik tanlov qilish malakalarini beradi. Bu bosqich baholashning o'qituvchi tomonidan emas, talaba ishtirokidagi tahliliy muloqot shaklida tashkil qilinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, B2 darajadagi iqtisodchi talabalar uchun samarali metodik yondashuvlar, xususan, ESP (Sohaga yo'naltirilgan) va TBLT (Vazifaga asoslangan) metodlari asosida leksikani o'rgatish mexanizmlari asoslab berildi. Har ikki metod talabani faqat til qabul qiluvchisi emas, balki tilni kasbiy faoliyatda ongli ravishda qo'llovchi subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi. Aynan shunday metodlar orqali o'rganuvchining leksik bilimlari nutqiy kompetensiyaga aylanishi, so'zlar nutqdagi real kommunikativ vazifalarni bajarishga xizmat qilishi mumkinligi asoslab berildi.

XULOSA

Iqtisodiy yo'nalishda tahsil olayotgan B2 darajadagi talabalar uchun ingliz tilidagi leksik kompetensiyani shakllantirish jarayoni an'anaviy yodlash modelidan farqli yondashuvni talab qiladi. Iqtisodiy leksika semantik jihatdan murakkab, uslubiy jihatdan neytral va ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'lgani sababli, uni o'rgatish jarayonida kontekstual, kommunikativ va raqamli integratsiyaga asoslangan metodlar samaraliroq natija beradi. Iqtisodiy terminlarni o'zlashtirishda ularning semantik va kollokatsion imkoniyatlarini kontekst asosida anglash, ularni og'zaki va yozma nutqda tabiiy ishlata olish leksik kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichlaridir. Shu nuqtai nazardan ESP



(English for Specific Purposes) va TBLT (Task-Based Language Teaching) yondashuvlari iqtisodchi talabalar uchun eng maqbul metodlar sifatida namoyon bo'ldi. Ular o'quv jarayonini real kasbiy muloqot vazifalariga yaqinlashtiradi, talabaning tahliliy va nutqiy faolligini oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, xususan Quizlet va Write & Improve platformalari – talabalarning mustaqil o'rganish, xatolardan tahlil orqali o'rganish va interaktiv ishtirokini kuchaytiruvchi samarali vositalar sifatida o'zini oqladi. Ularning yordamida leksik birliklar passiv bilim emas, balki faol nutqiy zaxiraga aylanadi. Shu asosda ishlab chiqilgan metodik model iqtisodiy ingliz tili o'qitish jarayonida kontekstual, kommunikativ va raqamli yondashuvni uyg'unlashtirgan holda, talabaning kasbiy muloqotda ishonchli va mustaqil ishlay oladigan darajadagi leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytganda, ingliz tili leksik kompetensiyasini shakllantirishda texnologik integratsiya, interaktivlik va funksional kontekstual o'rgatish yondashuvlari eng samarali natija beradi. Ushbu yondashuv iqtisodchi talabalarni xalqaro kommunikatsiyada faol, zamonaviy va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

References:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). *Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing*. Applied Linguistics, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/1.1.1>
2. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford University Press.
3. Godwin-Jones, R. (2018). *Emerging technologies: Using mobile and digital tools for vocabulary learning*. Language Learning & Technology, 22(3), 2–11.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centered approach*. Cambridge University Press.
5. Kamariddinova, M.E. (2022). Professional Competence Structure of Future Pre-school English Teachers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 15-18.
6. Liu, J., & Zhang, J. (2020). *Digital learning and the development of lexical competence in ESP contexts*. Journal of Language and Education, 6(4), 25–36.
7. Moydinova, E. (2024). Effective strategies for teaching in the digital age. In *Fergana state university conference*.
8. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
9. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2013). *Longman dictionary of language teaching and applied linguistics* (4th ed.). Routledge.
10. Schmitt, N. (2010). *Researching vocabulary: A vocabulary research manual*. Palgrave Macmillan.
11. Thornbury, S. (2017). *How to teach vocabulary*. Pearson Education.
12. Willis, J. (1996). *A framework for task-based learning*. Longman.